

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIY
FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.E.Xodjamberdiyev

Sovet hukumati tomonidan O'zbekistonda madaniyat sohasida amalga oshirilgan milliy siyosat va uning ijtimoiy oqibatlari (1945-1960-yillar) 206

J.Sultonov

Xorazmshoh va Kuchlukning raqobati: Markaziy Osiyoda siyosiy kuchlari o'rtasidagi ziddiyat 212

U.X.Gulmatov

Transport tizimining avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash muammolari va yechimi..... 219

A.H.Boltayev

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyatiga bir nazar 224

Sh.Qo'ldashev, B.Umarxodjayev

Farg'ona dostonchilik maktabi tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar 228

M.F.Rasulov

Markaziy Osiyoda qadimgi arxivlar tarixi 231

A.A.Abduqahorov

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti va uning jamiyatga ta'siri..... 237

ILMIY AXBOROT

D.N.Toshpo'latov

Addiktiv axloqning milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarga ta'siri..... 241

F.E.Tuyev

Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi (1991-2008 yillar) 246



UO'K: 94(575.1"12")

**XORAZMSHOH VA KUCHLUKNING RAQOBATI: MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY
KUCHLARI O'RTASIDAGI ZIDDIYAT****СОПЕРНИЧЕСТВО ХОРЕЗМШАХА И КУЧЛУКА: КОНФЛИКТ ПОЛИТИЧЕСКИХ СИЛ В
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ****RIVALRY BETWEEN KHOREZMSHAH AND KUCHLUK: THE CONFLICT OF POLITICAL
FORCES IN CENTRAL ASIA**Sultonov Javohir Farg'ona davlat universiteti, Strategik rivojlanish va xalqaro reytinglar bo'limi boshlig'i,
mustaqil tadqiqotchi**Annotatsiya**

Ushbu maqola Xorazmshoh Muhammad va Kuchluk o'rtasidagi qarama-qarshilikning Markaziy Osiyo tarixiga ta'sirini tahlil qiladi. Ushbu nizoning mo'g'ullarning Sharqiy Turkiston va Movarounnahr hududlarini egallashiga qanday zamin yaratgani ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Maqolada mo'g'ullarning harbiy yurishlari, Xorazmshoh Muhammadning siyosiy strategiyasi va uning amalga oshmagan rejalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Qoraxitoy davlati, islomiy jamoalar va mo'g'ullar o'rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi. Ushbu tadqiqot tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy ishlarga asoslangan holda olib borilgan bo'lib, XIII asr boshlaridagi harbiy-siyosiy jarayonlarning chuqur tahlilini taqdim etadi.

Аннотация

В данной статье анализируется влияние противостояния между Хорезмшахом Мухаммадом и Кучлуком на историю Центральной Азии. Рассматривается, как этот конфликт способствовал завоеванию Восточного Туркестана и Мавераннахра монголами с научной точки зрения. Особое внимание уделяется военным походам монголов, политической стратегии Хорезмшаха Мухаммада и нереализованным планам его экспансии. Также раскрываются сложные отношения между государством Каракитаев, исламскими общинами и монголами. Данное исследование основано на исторических источниках и современных научных работах, предоставляя глубокий анализ военно-политических процессов начала XIII века.

Abstract

This article examines the impact of the conflict between Khwarazmshah Muhammad and Küchlüg on the history of Central Asia. It evaluates how this confrontation facilitated the Mongol conquest of Eastern Turkestan and Transoxiana from an academic perspective. Special attention is given to the Mongol military campaigns, Khwarazmshah Muhammad's political strategy, and his unfulfilled expansionist plans. Additionally, the complex relations between the Qara Khitai state, Islamic communities, and the Mongols are analyzed. This research is based on historical sources and contemporary scholarly works, providing an in-depth analysis of the military-political processes of the early 13th century.

Kalit so'zlar: Xorazmshoh Muhammad, Kuchluk, mo'g'ullar, Qoraxitoylar, Sharqiy Turkiston, Movarounnahr, harbiy yurishlar, siyosiy strategiya.

Ключевые слова: Хорезмшах Мухаммад, Кучлук, монголы, Каракитаи, Восточный Туркестан, Мавераннахр, военные походы, политическая стратегия.

Key words: Khwarazmshah Muhammad, Küchlüg, Mongols, Qara Khitai, Eastern Turkestan, Transoxiana, military campaigns, political strategy.

KIRISH

XIII asr boshlarida Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston mintaqalarida murakkab geosiyosiy jarayonlar ro'y berdi. Xususan, Xorazmshoh Muhammad va Kuchluk o'rtasidagi qarama-qarshilik, mo'g'ullarning strategik harakatlari va Qoraxitoylar saltanatining zaiflashuvi ushbu hududning taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda kuchli siyosiy o'zgarishlar, dinlararo ziddiyatlar va harbiy to'qnashuvlar mintaqadagi davlatlarning kelajagini belgilab berdi. Mazkur maqolada Muhammad Xorazmshoh va Kuchluk o'rtasidagi ziddiyatning kelib chiqish sabablari, uning geosiyosiy oqibatlari hamda mo'g'ullarning ushbu jarayonga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi.

TARIX

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada tarixiy hodisalarning tahlili uchun qiyosiy-tahliliy va tarixiy-mantiqiy metodlardan foydalanilgan. Asosiy manbalar sifatida Sharq tarixchilari, xususan, Juvayniy va al-Assir kabi muarrixlarning asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, arxiv materiallari va muqobil tarixiy dalillar asosida mavzuga yondashuv amalga oshirilgan. Metodologik jihatdan maqola muayyan voqealarning ketma-ketligini, ularning sabab-oqibat bog'liqligini hamda tarixiy shaxslarning roli va qarorlarini o'rganishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mo'g'ullar istilosi va Xorazmshoh Muhammad davrining siyosiy voqealarini yoritishda bir qator muhim manbalar va tadqiqotlar mavjud. Michal Biran o'zining *China, Nomads and Islam: The Qara Khitai (Western Liao) Dynasty, 1124–1218* asarida Qoraxitoy davlati va uning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni, shuningdek, mo'g'ullarning ushbu hududdagi harbiy harakatlarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot Kuchluk va Xorazmshoh Muhammad o'rtasidagi nizo fonida mo'g'ullarning strategik yutuqlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ala-ad-Din Ata-Malik Juvayniyning *The History of the World-Conqueror* asari mo'g'ullar yurishlari va Chingizxonning harbiy strategiyasi haqida muhim manba hisoblanadi. U, ayniqsa, Xorazmshoh Muhammad va mo'g'ullar o'rtasidagi to'qnashuvlar tafsilotlarini yoritib, mo'g'ullarning tezkor yurishlari va ularning harbiy ustunligini ko'rsatadi. Shuningdek, Juvayniy mo'g'ullarning Movarounnahr va Sharqiy Turkistondagi istilolarini tasvirlaydi.

V. V. Bartoldning *Туркестан в эпоху монгольского нашествия* asari mo'g'ullar istilosi davrida Markaziy Osiyoning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ahvolini o'rganishda muhim tadqiqotlardan biri bo'lib, unda Xorazmshoh Muhammadning harbiy strategiyasi va mo'g'ullar yurishining oqibatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Frank McLynnning *Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy* asari esa Chingizxon yurishlarini kengroq kontekstda o'rganib, uning muvaffaqiyatlarining sabablarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot mo'g'ullarning chaqqon harbiy harakatlari qanday qilib Xorazmshoh Muhammad rejalarini barbad bo'lishiga olib kelganini tushunishda foydalidir.

Shihab ad-Din Muhammad an-Nasaviyning *Сират ас-Султан Джалал ад-Дин Манкбурны* asari Xorazmshoh Muhammadning o'g'li Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashlari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Ison al-Assirning *Аль-Камиль фи ат-Тарих* asari esa mo'g'ullar istilosi kontekstida ishonchli tarixiy ma'lumotlarni taqdim etib, Markaziy Osiyodagi kuchlar muvozanati qanday o'zgarganini yoritadi.

Ushbu adabiyotlar Xorazmshoh Muhammad va Kuchluk o'rtasidagi nizo hamda mo'g'ullarning bu vaziyatdan qanday foydalangani haqida tahliliy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular mo'g'ullar yurishlarining mintaqaga ta'siri va keyingi siyosiy jarayonlar uchun ahamiyatini ochib beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

XIII asr boshlarida G'arbiy Liao (Qora Xitoy) sulolasi ma'lum bir manoda zaiflashdi. Bunga sabab mintaqadagi vassal hukmdorlarni isyonlari edi[1]. Bu isyonlar bo'layotgan bir davirda 1208-yilda jangda Chingizxondan yengilgan Kuchluk bu hududlarga yana bir muhim o'yinchi sifatida kirib keldi. Naymanlarning so'nggi umidi bo'lgan Kuchluk mo'g'ullardan mag'lub bo'lgach Qoraxitoy hukmdoridan yordam so'radi. Kuchluk oz sonli sodiq tarafdorlari bilan kelganiga qaramay, Qoraxitan poytaxtida hukmdor Gur-xon Jilugu tomonidan iliq kutib olindi. Bu qabul qisman Nayman va Qoraxitoy o'rtasidagi tarixiy ittifoq tufayli edi, lekin bundan ham muhimi, Jilugu Kuchlukni sharqda mo'g'ullar va g'arbda Shoh Muhammad tahdidlari oldida qimmatli ittifoqchi sifatida qabul qildi.

Jilugu Kuchlukga hurmatli mehmon sifatida munosabatda bo'lib, Sulton boshchiligida isyon boshlangach va boshqa sharqiy shahzodalar Chingizxonning himoyasini izlab, g'urxonning zulmidan xalos bo'lishga urinayotganda, Kuchluk g'urxonga murojaat qildi va dedi:

“Mening odamlarim ko'p, ular Emil, Qayaliq va Besh-Baliq hududlariga tarqalgan, va har bir joyda ularga tajovuz qilinmoqda. Agar ruxsat bersangiz, ularni bir joyga to'plab, bu xalq yordamida g'urxonga xizmat qilaman va uni qo'llab-quvvatlayman. Siz buyurgan yo'ldan og'ishmayman va sizning istaklaringizni bajarishda barcha imkoniyatimni ishga solaman.[2]”

Ushbu yolg'on va aldov bilan Kuchluk g'urxonni yolg'on hayollarga aldab qo'ydi. G'urxon unga ko'plab sovg'alar berib, «Kuchlukxon» unvonini taqdim etdi. Buning ortidan Kuchluk kuchli yoydan otilgan o'qdek shiddat bilan harakatlana boshladi. Bu voqealar tarqalishi bilan Qoraxitoylar

qo'shinidagi unga aloqador barcha odamlar uning oldiga kelib qo'shildilar. Shunday qilib, u Emil va Qayaliq hududlariga kirib bordi.

Chingizxonning hujumidan qochgan merkut qabilasi sardori Toq-Tug'on ham Kuchluk bilan ittifoq tuzdi. Natijada, Kuchlukning qabilalari har tomondan yig'ila boshladi. Turli qabilalardan, jumladan nayman va merkitlardan qochqinlar va dindan qaytganlardan tashkil topgan bu qo'shin tez orada 8000 kishiga yetdi. Jilugu, Shoh Muhammad bilan to'qnash kelgan taqdirda, asosan islomiy fuqarolarning sodiqligidan xavotirlanib, Kuchluk qo'shinini potentsial islomga qarshi muvozanat sifatida ko'rdi.

Muhammad Xorazmshoh Xurosonda hokimiyatini mustahkamlab olgach, bor e'tiborini Movarounnahrqa qaratdi. U Buxorodan islomni Qoraxitoylar hukmronligidan qutqarishga chaqiruvchi xatlarni olganidan so'ng, 1210 yilda Buxoroga yurish qildi. Buxoroni egallaganidan keyin esa Samarqand tomon yo'l oldi.

Bu davrda Samarqand hukmdori Sulton Usmon bo'lib, u rasman Qoraxitoylar vassali sifatida hukmronlik qilardi. Muhammad Xorazmshoh Samarqandga yetib kelganida, Usmon unga qarshilik ko'rsatmaslikni tanladi. Buning sababi shundaki, u avvalroq Qoraxitoylar hukmdori Go'rxonning qiziga uylanish maqsadida elchilar yuborgan edi. Biroq Go'rxon bu taklifni rad etgach, Usmon bilan Qoraxitoylar o'rtasidagi munosabatlar keskin yomonlashdi. Shu sababli, Usmon Go'rxon xizmatidan voz kechib, Xorazmshoh tarafga o'tishga qaror qildi. Natijada, Muhammad Xorazmshoh Samarqandni jangsiz egallashga muvaffaq bo'ldi. Uning itoatkorligi uchun Xorazmshoh o'z qizini Sulton Usmonga turmushga berdi[2].

Bu voqealardan xabar topgan Qoraxitoylar hukmdori Go'rxon Xorazmshohga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuborish uchun o'z lashkarboshisi Tayanguga jangga tayyorgarlik ko'rish buyruqini berdi. Tez orada Xorazmshoh va Qoraxitoylar qo'shinlari o'rtasida yirik jang sodir bo'ldi. Ushbu jangda Xorazmshoh qo'shini g'alaba qozonib, Movarounnahr ustidan to'liq nazorat o'rnatdi.

Bu buyuk g'alabadan so'ng, Muhammad Xorazmshoh "Iskandari Soniy" (Ikkinchi Iskandar) unvoniga sazovor bo'ldi. Bunga sabab, Movarounnahr aholisi Qoraxitoylarni Qur'onda tilga olingan Yajuj va Majuj qabilalariga qiyoslagan edi. Agar Iskandar Zulqarnayn devor qurib, bu qabilalardan odamlarni himoya qilgan bo'lsa, Muhammad Xorazmshoh ham Qoraxitoylardan Movarounnahr aholisini qutqargani uchun shu ulug' nom bilan ataldi[2].

Juvayniy ushbu g'alabani keng qamrovligini ta'kidlar ekan, uning ijtimoiy va siyosiy oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning asarida Shamsiddin Ali ibn Muhammadning shohidliklariga tayanib, Shadyax shahrida Sultonning Xitoy ustidan g'alaba qozongani haqidagi xabar qanday kutib olingani bayon etiladi. Manbalarga ko'ra, Shamsiddin Ali ibn Muhammad o'z hamrohlari bilan Sayyid Murtazo ibn Sayyidning huzuriga tashrif buyurganida, uni chuqur o'ychan va g'amgin holda topgan. Garchi butun shahar ushbu g'alabani nishonlayotgan bo'lsa-da, Sayyid Murtazo bunday shodiyonalarga qo'shilmagan. Sababini so'raganlarida, u tarixiy va geosiyosiy reallikni inobatga olgan holda quyidagi fikrni bildirgan:

«Ey beparvo odamlar! Ushbu turklardan narida g'azab va qasos bilan to'lib-toshgan, soni Yajuj va Majujdan ham ko'proq bo'lgan bir xalq yashaydi. Xitoy xalqi biz bilan ular o'rtasidagi Zulqarnayn devori edi. Agar bu devor qulab tushsa, bu yurtida tinchlik o'rnatilishi yoki kimdir osoyishtalikda yashashi ehtimoldan yiroq. Bugun men Islom uchun motam tutayapman[2].»

Kuchluk tez orada atrofiga kuchli armiya yig'ishga erishadi. Ushbu armiya yordamida u dastavval o'z homiysi bo'lgan Qoraxoniylar hukmdoriga nisbatan isyon ko'taradi. Shu davrda Xorazmda vujudga kelayotgan ulkan bir imperiyaga aylanayotgan Xorazmshohga elchi yuborib Qoraxoniylar yerlarini bo'lib olishni taklif qiladi. U o'z taklifida agar Xorazmshoh birinchi bo'lib Go'rxonni yerlarini bosib olsa, u Olmaliqdan Qoshg'argacha bo'lgan barcha Qoraxoniylar yerlariga ega bo'lishi, agar Kuchluk birinchi bo'lsa, Fanokot daryosi bo'yigacha yerlarga ega chiqishini bildirdi[2].

Dastlab ikkilanib turgan bo'lsa-da, oxir-oqibat Muhammad Kuchlukni ochiq qo'llab-quvvatlashga rozi bo'ldi, bunga qisman Kuchlukning O'zganddagi Qoraxiton davlati xazinasiga bostirib kirishi sabab bo'ldi, buning natijasida qoraxitoylar xazinasini bo'shab qoladi[3].

Bu hiyonat harakati mintaqa siyosiy dinamikasida burilish nuqtasi bo'ldi, chunki Kuchlukning ambitsiyalari Jilugu hokimiyati bilan to'qnashib, Qoraxitoy ichida yanada beqarorlik va ziddiyatga olib keldi[4].

Keyinchalik yuzaga kelgan to'qnashuv Qoraxitoyning o'zida tashqi tajovuz va ichki nizolarning uyg'unligi edi. Dastlab Kuchluk o'zini noqulay ahvolga solib qo'ydi. Jilugu o'zining kuchli

TARIX

armiyasini yig'ib, otliq qo'shinlarining jasoratidan foydalangan holda yurishga kirishdi. U tezda poytaxt Balasaqun yaqinida hiyonatkor kuyoviga yetib oldi va uni mag'lub etib, o'g'irlangan xazina mablag'larining katta qismini qaytarib oldi. Kuchlukning ittifoqchisi Arslon Jiluguning g'alabasidan xavotirlanib, uni tashlab, Chingizxondan panoh so'radi va himoya evaziga mo'g'ullarga vassalga aylanishni taklif qiladi.

Kuchluk sezilarli mag'lubiyatga uchraganiga qaramay, ko'pchilik qo'shinlari bilan jang maydonidan qochib qutulishga muvaffaq bo'ldi. Shoh Muhammad qo'shinlari g'arbdan oldinga siljigan va sharqda Kuchluk tahdidi paydo bo'lgan bir paytda, Qoraxitoy ko'p tomondan qamalda qolgan. Jilugu g'alabadan keyin Balasaqunga qaytib kelganida islomiy fuqarolar tomonidan shahar darvozalari unga qarshi yopiqligini ko'rdi. Bu bo'ysunmaslik o'n olti kunlik shafqatsiz qamalga olib keldi va Jiluguning barcha 47 000 aholisini shafqatsiz qirg'in qilish bilan yakunlandi.

Bu orada Shoh Muhammad g'arbiy Qoraxitoyda Samarqand hukmdori Usmon va uning kuchli qo'shini ko'magida ustunlikka erishdi. Jaxartes daryosidan o'tib, Muhammad shimolga qarab yo'l oldi va 1210-yil sentabrda Jaxartes daryosi yaqinida Qoraxitayning eng yaxshi sarkardasi Tayangu bilan shiddatli jangga kirishdi.

Tayanguning qo'lga olinishi va taktik xato tufayli darhol qatl etilishi mamlakatdagi muvozanatni o'zgartirdi. Muhammadning g'alabasi haqida ushbu muvaffaqiyatga qaramay, ko'plab tahlilchilar tomonidan shu narsa aytiladiki, agar Kuchlukning qoraxitoylar davlatni inqirozidagi ishtiroki bo'lmaganida edi, Jilugu oxir-oqibat bu mojaroda g'alaba qozonishiga ishonishadi.

1211-yildan keyingi yillarda Qoraxitoy podsholigi keskin halokatga uchradi. Uzoq davom etgan urushlar xazinani tugatib, og'ir va to'satdan moliyaviy inqirozga olib keldi. Maslahatchilari tomonidan qo'shinlarni to'lash uchun mablag' yo'qligi haqida maslahat bergan Jilugu og'ir dilemmaga duch keldi. U o'z askarlari Kuchlukdan ilgari tortib olgan, qaytarib olish uchun mukofot sifatida ularga va'da qilingan boyliklarni musodara qilishdek keskin chorani qo'lladi. Kutilganidek, bu harakat qo'shinlar o'rtasida qo'zg'olonni keltirib chiqardi, natijada qo'zg'olon paydo bo'ldi. Kuchluk fursatdan foydalanib, qo'zg'olonchilarga rahbarlikni o'z zimmasiga oldi, Jiluguni qo'lga oldi va qulay uy qamog'iga o'tkazib, uning qizlaridan biriga uylanadi[2]. Jilugu ikki yil nominal davlat boshlig'i bo'lib qolgan bo'lsa-da, Kuchluk Qoraxitoyda haqiqiy hokimiyatni boshqargan. 1213 yilda Jilugu vafot etgach, Kuchluk o'zini gur-xon deb e'lon qildi.

Olimlar Kuchlukning yangi saltanati borasidagi niyatlari borasida turlicha fikrda. Ba'zilar u shunchaki taxtni egallab olishga intilgan deb hisoblasa, boshqalari an'anaviy tartibni qayta tiklash va yangi jamiyat qurish bo'yicha ulkan reja haqida taxmin qilmoqda. Kuchluk hududiy murosaga rozi bo'lib, sobiq g'arbiy sektor ustidan nazoratni Muhammadga berib, sharqiy mintaqada hukmronlikni tasdiqladi.

Sulton Muhammad Kuchluk-xonni gur-xonni asir olib, uning qo'lida bo'lgan asrlar davomida dunyoning turli burchaklaridan to'plangan qimmatbaho toshlar va xazinalarni qo'lga kiritganini bilgach, unga xabar yubordi va quyidagilarni yetkazdi:

«Xonlarning xoni mening tuzoqlarimdan faqat uni har qanday talonchi va har qanday bosqinchi uchun o'lja qilib qo'yganimdan keyin qutuldi. Nega sening qalbing uning kuch-qudratining eng yuqori cho'qqisida bo'lganida unga hujum qilishga undamadi?»

Men uni mamlakati va shaharlaridan chiqarib yubordim, uning barcha yordamchilari va hamkorlarini qilich bilan yo'q qildim. U mendan yarashishni so'rab, menga qizi Tugaach-xotunni va uning xazinalarida mavjud bo'lgan oltin, kumush va qimmatbaho toshlarni berishga rozi bo'ldi, sharti shuki, men uning mamlakatining qolgan qismini, qilichimizdan omon qolgan oz sonli aholisini undan tortib olmasligim edi. Agar sen o'zing va odaming uchun xavfsizlikni xohlasang, menga gur-xonni qizi, xazinalari, mol-mulki va tarafdorlari bilan yuborishing kerak. Aks holda, men senga qilichingning o'tkiriligi ham, ishongan joying ham yordam bera olmaydigan kuch bilan kelaman.»

Kuchlukxon kamtar va itoatkorona javob berdi. Sovg'a sifatida u sultonga o'z mamlakatining noyob va qimmatbaho buyumlarini yubordi. Shu bilan birga, u gur-xonni unga yetkazib bera olmagani uchun rahm-shafqat so'rab kechirim so'radi[5].

Ikki hukmdor o'rtadagi munosabatlar sekin astalik bilan yomonlashadi. Natijada ikki o'rtada urish kelib chiqadi. Katta janglarga kirmay mayda to'qnashuvlar orqali raqibni qo'l ostidagi hududlarga hujumlar qiladi. Bazi bir qabilalar boshqa joyga ko'chi o'tayotganda, qabila qarorgohini tark etayotganini eshitib, ular tomon yo'l olib ularning mol-mulkni talon-taroj qiladi. Kuchluk bu ishlardan keyin unga xabar yuboradi: "Buni podshohlar emas, qaroqchilar qiladi. Agar siz sulton bo'lsangiz, siz

da'vo qilganingizdek, biz uchrashishimiz kerak: yo meni mag'lub etib, hozir mening qo'limda bo'lgan mamlakatni egallab olasiz yoki men buni siz bilan qilaman[6]."

Xorazmshoh yakama –yakka jongdan qochib o'z taktikasi bo'ylab harakatlandi.

O'sha davrda obod bo'lmagan Shosh, Farg'ona, Isfijob, Koson va boshqa qo'shni shaharlar aholisini ko'chib, musulmon hududlariga qo'shilishni buyurdi. Keyin u dushmanlar egallab olishidan qo'rqib, bu shaharlarning barchasini vayron qildi[6].

Kuchluk 1213-1216 yillardagi qisqa hukmronligi davrida Muhammadning g'arbda ta'siri kuchayib borayotganini vahima bilan kuzatdi, garchi oshkora adovatlar avj olmagan. Uning e'tiborini ichki tartibsizliklar, xususan, Kuchlukning diniy siyosati sabab bo'lgan 1213-yil Qashg'ardagi qo'zg'olon tortdi. Bu qo'zg'olon jiddiy xavf tug'dirdi va keyingi yil ham davom etdi, faqat aholi orasida keng tarqalgan ochlik tufayli susaydi. Bu ocharchilik esa tabiiy ofat emas, balki Kuchlukning shafqatsiz taktikasi natijasi edi. U nafaqat ekinlarni yo'q qildi, balki och qolgan oilalarni o'z qo'shinlarini joylashtirishga majbur qildi, bu esa aholining azobini yanada kuchaytirdi[2].

Kuchlukning hukmronlik davridagi siyosati uning davlatni barqaror boshqarish qobiliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash muhimdir. Qoraxitoylar saltanati qoldiqlari ustida yangi ijtimoiy va siyosiy tuzilma yaratishga urinayotgan har qanday hukmdor avvalo diniy kelishmovchiliklarni bartaraf etishga va Islom va Buddizm o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatishga intilishi lozim edi. Afsuski, Kuchluk bu jihatni e'tibordan chetda qoldirib, aksincha, keskin qarama-qarshiliklarni kuchaytirishga sabab bo'ldi.

Bizning fikrimizcha, Kuchluk o'z hukmronligi davomida ikki asosiy diniy va iqtisodiy ustunga qarshi tajovuzkor siyosat yuritgan. Musulmon savdogarlarga dushmanlik qilish orqali u saltanatining iqtisodiy poydevorini zaiflashtirdi. Bu savdogarlar o'z e'tiqodlariga bo'lgan adovati sababli Kuchluk bilan barcha iqtisodiy aloqalarini to'xtatdilar, bu esa savdo-sotiq faoliyatining keskin pasayishiga olib keldi. Shuningdek, u o'z boshqaruvi ostidagi shaharlarda aholini ikki dinning birini qabul qilishga majburlab, Islom dini vakillarini qattiq jazoladi. Ko'plab musulmon ulamolar qatl qilindi, bu esa aholining noroziligini yanada oshirdi. Xutanda yuzaga kelgan qarshilikni bostirish maqsadida, Kuchluk atrofdagi ekinzorlarni uch yil davomida yoqib yuborib, mahalliy aholini iqtisodiy qiyinchiliklar ichida qoldirdi va shaharni taslim bo'lishga majbur qildi.

Musulmonlarga bo'lgan bu bosim, jumladan, ularni nasroniylik va hind dini e'tiqodlarini qabul qilishga majburlash va xitoycha kiyinishni talab qilish kabi qattiqqo'l siyosatlar, mahalliy aholining noroziligini yanada kuchaytirdi. Xutandagi diniy yetakchilardan biri, imom Alouddin Muhammad, Kuchlukning siyosatiga ochiq qarshi chiqib, u bilan diniy bahsga kirishdi. Natijada, imom qatl qilindi. Ushbu voqeadan so'ng, mahalliy diniy yetakchilar vaziyatni tartibga solish uchun Chingizxon va Xorazmshoh Muhammaddan yordam so'rashga majbur bo'lishdi[2].

Kuchlukning bunday siyosati, bizning fikrimizcha, uning hukmronligini nafaqat ichki barqarorlikdan mahrum qildi, balki uning saltanatini halokatga olib keluvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bu davr voqealari diniy bag'rikenglik va iqtisodiy barqarorlik siyosati barqaror davlat boshqaruvining muhim omillari ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Kuchlukning siyosiy faoliyati va boshqaruv usullari Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo tarixida og'ir oqibatlarga olib kelgan muhim burilish davrini belgilab berdi. U o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida qattiq va despotik boshqaruv yo'lini tanladi, bu esa diniy kelishmovchiliklarni yanada kuchaytirdi. Musulmon aholiga nisbatan qattiq repressiyalar joriy etilib, ko'plab ulamolar qatl qilindi, aholiga esa boshqa dinlarni qabul qilish majburlandi. Ayniqsa, Xutanda amalga oshirilgan shafqatsiz choralar – ekinlarni yo'q qilish va resurslarni bo'g'ish orqali aholining ocharchilikka duchor qilinishi, norozilikning yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

Muhammad Xorazmshoh Kuchlukning zulmkor va repressiv siyosatiga qarshi harakat qilishga intildi, ammo uning harbiy yurishlari muvaffaqiyat keltirmadi. Natijada, Xorazmshoh nafaqat o'zini mustahkam strateg sifatida ko'rsata olmadi, balki Sharqiy Turkiston aholisini Kuchlukning qat'iy siyosiy qatag'onlaridan himoya qilishda ham samarasiz bo'ldi.

Bu fikrga biz Ibn al-Asir ning ushbu ma'lumotlariga asoslanib kelishimiz mumkin. Xorazmshoh Kuchlukxonga elchi yuborib, uning qoraxitoylarga qarshi muvaffaqiyat qozonishida yordam berganini eslatadi va "Agar men bo'lmaganida, sen hech qachon xitoylarga qarshi g'alaba qozona olmas eding", deya bildiradi. Avvaliga Kuchlukxon bu gaplarni tan oladi. Biroq, keyinroq u Xorazmshohga elchi yuborib, xitoylardan egallangan yerlarda ulush talab qiladi va "Biz birlashib ularni mag'lub etdik, shuning uchun ularning mamlakatini bo'lishimiz kerak", deydi. Xorazmshoh esa unga javoban shunday deydi: "Men senga qilichdan boshqa hech narsa bera olmayman. Xitoylardan

TARIX

na jasurroq va na davlat jihatidan ulardan kuchliroqsan. O'zing yashab turgan joylar bilan kifoyalan, aks holda senga qarshi yurish qilib, xitoylarga qilganimdan ham yomonroq qilaman".

Bu so'zlardan keyin Kuchlukxon o'z qo'shinlarini safarbar qilib, Xorazmshoh hududlariga yaqin joyda lager quradi. Xorazmshoh esa unga qarshi tura olmasligini tushunib, to'qnashuvdan qochishga urinadi. Lekin Kuchlukxon harakat qilar ekan, Xorazmshoh uning orqasidan yurib, odamlariga va karvonlariga hujum qilib, talon-taroj qiladi. U hatto qaysidir qabila o'z turar joyini tark etganini eshitsa, darhol ularning orqasidan borib, hujum uyushtiradi. Kuchlukxon esa Xorazmshohga shunday xabar yuboradi: "Shohlar bunday ish qilmaydi, bu talonchilar ishidir. Agar sen o'zingni sulton deb bilsang, kel, yuzma-yuz uchrashaylik: sen meni mag'lub qilsang, mening qo'limdagi yerlarga egalik qilasan, yoki men seni mag'lub qilib, senga tegishli mamlakatni qo'lga kiritaman"[6].

Xorazmshoh Muhammad Kuchlukxon bilan munosabatlarni tartibga solish va o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Muhammad ibn Qoroqosim an-Nasaviyni elchi sifatida yubordi. Ushbu missiyaning asosiy maqsadi Gurxonni Xorazmshohga topshirish va Kuchlukni Xorazm hukmronligiga bo'ysundirish edi. Biroq, elchining topshirig'ini bajarish uslubi, ayniqsa muzokara olib borish strategiyasidagi keskinlik va diplomatik moslashuvchanlikning yetishmasligi sababli, natija kutilganidek bo'lmadi. Elchining muzokara jarayonida ortiqcha tajovuzkorlik namoyon etishi, Xorazmshoh diplomatiyasining murosasizlik siyosatiga asoslanganligini ko'rsatdi.

Buning oqibatida Kuchlukxon nafaqat Xorazmshohning talablarini rad etdi, balki elchini zindonga tashlashga qaror qildi[5].

Ushbu holat xalqaro munosabatlarda Xorazmshoh davlatining diplomatik zaifligini yaqqol namoyon etdi, chunki Xorazmshohning o'z elchisiga nisbatan qattiq chora ko'rgan Kushluqxonga munosib javob bera olmasligi uning xalqaro diplomatiyadagi obro'sini pasaytirgan omillardan biri bo'ldi.

Biroq, Xorazmshoh bu taklifni qabul qilmay ochiq jangdan qochadi. Aholining o'z diniy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish borasidagi umidlari puchga chiqqanidan so'ng, musulmon jamiyatining Xorazmshohga bo'lgan ishonchi sezilarli darajada pasaydi.

Xorazmshoh Kuchlukni ochiq jangda tor-mor eta olmagach, Sharqiy Turkistondagi musulmon xalqlarning uning zulmidan qutulish umidlari butkul puchga chiqdi. Bu holat mahalliy aholining Xorazmshohga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada susaytirib, uning musulmon jamiyatini himoya qilish qobiliyatiga shubha uyg'otdi. Xorazmshohning harbiy muvaffaqiyatsizligi faqatgina uning harbiy kuchining zaifligini emas, balki siyosiy yetakchilik borasidagi kamchiliklarini ham ochib tashladi.

Mazkur vaziyat shuni ko'rsatadiki, Sharqiy Turkiston aholisi Chingizxon shaxsida Kuchluk zulmiga barham beradigan yagona kuchni ko'ra boshladi. Kuchluk tomonidan amalga oshirilgan qattiqqo'l diniy va siyosiy repressiyalar jamiyatda chuqur norozilik uyg'otgan bo'lsa, Chingizxonning qat'iy harbiy siyosati va diniy bag'rikengligi aholi orasida umid manbai sifatida qabul qilindi. Ushbu jarayon Chingizxon uchun beqiyos strategik ustunlik yaratib, uning Sharqiy Turkiston va unga tutash hududlardagi siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi.

Kuchlukning harbiy va siyosiy imkoniyatlari tobora zaiflashib borar ekan, uning qochishi va oxir-oqibat Badahshonda tor-mor etilishi mo'g'ullarning harbiy strategiyasi muvaffaqiyatini yaqqol namoyon etdi[2].

Chingizxon bu muvaffaqiyatga nafaqat harbiy ustunligi, balki vaziyatni aniq tahlil qilish, diplomatik manevrlarni mohirona qo'llash va raqiblarining zaif tomonlaridan o'z manfaatlari yo'lida samarali foydalanish orqali ham erishdi.

Diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, Kuchlukning zulmidan aziyat chekkan aholi yordam so'rab Xorazmshoh va Chingizxonga murojaat qilganida, Chingizxon Xorazmshohdan farqli ravishda vaziyatni o'z foydasiga hal qilish uchun tezkorlik bilan harakat qildi. Uning bu strategik donoligi mo'g'ullarning muvaffaqiyatli yurishlarini ta'minlab, Sharqiy Turkistondagi mo'g'ul ta'sirini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Bu esa Chingizxonning nafaqat harbiy, balki siyosiy va diplomatik mahoratini ham yaqqol namoyon etdi.

XULOSA

Xorazmshoh Muhammad va Kuchluk o'rtasidagi qarama-qarshilik XIII asr boshlarida Markaziy Osiyoning siyosiy manzarasini tubdan o'zgartirgan muhim voqealardan biri bo'ldi. Ushbu nizoning oqibatida ikkala tomon ham o'zaro kurashga shu qadar berilib ketdiki, ular sharqdan kelayotgan mo'g'ullar tahdidiga yetarlicha e'tibor qaratmadi. Natijada, mo'g'ullar bu vaziyatdan unumli foydalangan holda Sharqiy Turkistonni bosib oldi. Xorazmshoh Muhammad mo'g'ullarga qarshi dushmanlikni tobora kuchaytirgan bo'lsa-da, Chingizxon qo'shinlarining Qoraxitoy hududidagi

Turkistonning muhim shaharlarini – Qashqar, Balasog'un va Xitoy mintaqalarini tezkorlik bilan egallashi uning harbiy strategiyasiga jiddiy to'siq bo'ldi. Xorazmshoh bu hududlarni o'z harbiy ekspansiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rgan bo'lsa-da, mo'g'ullarning chaqqon va strategik harbiy yurishlari uning rejalarini barbod qildi. Ushbu maqolada tahlil qilingan voqealar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyodagi bu harbiy va siyosiy to'qnashuvlar Yevrosiyo tarixining keyingi rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatgan va mo'g'ullar imperiyasining kengayishiga zamin yaratgan muhim omillardan biri bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Biran, Michal. China, Nomads and Islam: The Qara Khitai (Western Liao) Dynasty, 1124–1218. PhD diss., Hebrew University of Jerusalem, 2000, 36–176.
2. Ala-ad-Din 'Ata-Malik Juvaini, translated from the text of Mirza Muhammad Qazvini by John Andrew Boyle, Ph.D. The History of the World-Conqueror, Harvard University Press, 1958, p. 63–67, 343, 347.
3. Бартольд, В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва: Издательство восточной литературы, 1963. С. 428.
4. McLynn, Frank. Genghis Khan: His Conquests, His Empire, His Legacy. Philadelphia: Da Capo Press, 2015, p. 247.
5. Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Сират ас-Султан Джалал ад-Дин Манкбурны (Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны). Издание критического текста, перевод с арабского, предисловие, комментарий, примечания и указатели: З.М. Бунятов. Москва: 1996. С. 45–46.
6. Ибн аль-Асир. Аль-Камиль фи ат-Тарих. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии: П.Г. Булгакова. Дополнения, примечания, комментарии, введение и указатели: Ш.С. Камолиддин. Ташкент-Цюрих, 2005. С. 346.